

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK
O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika II-bosqich magistranti
Xamdamova Zebo Shuhratillo qizi
PhD Qoraboyev Jasur
28foreversmile@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirish masalalari va pedagogik ijodkorlikni shakllantirishda akmeologik yondashuvning muhim ahamiyat kasb etishi haqida bayon etilgan. Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining eng yuqori darajasiga — akmeologiyaga erishish prinsiplari asosida o'qituvchining kreativ pedagogik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, pedagogik ijodkorlik, akmeologik yondashuv, innovatsiya, bo'lajak o'qituvchi, kreativ salohiyat, kasbiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования педагогического творчества у будущих учителей и значение акмеологического подхода в формировании педагогического творчества. В исследовании анализируется значение акмеологического подхода в формировании педагогического творчества у будущих учителей. Акмеологический подход открывает возможности развития творческого педагогического потенциала учителя на основе принципов достижения наивысшего уровня профессионального и личностного развития личности – акмеологии.

Ключевые слова: творчество, педагогическое творчество, акмеологический подход, инновации, будущий учитель, творческий потенциал, профессиональное развитие.

Abstract. This article describes the issues of forming pedagogical creativity in future teachers and the importance of the acmeological approach in the formation of pedagogical creativity. This study analyzes the importance of the acmeological approach in the formation of pedagogical creativity in future teachers. The acmeological approach opens up the possibilities of developing the creative pedagogical potential of a teacher based on the principles of achieving the highest level of professional and personal development of a person - acmeology.

Keywords: creativity, pedagogical creativity, acmeological approach, innovation, future teacher, creative potential, professional development.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktyabr O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmonida Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlarini ishlab chiqish to'g'risida belgilab qo'yilgan¹. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabr. PF-5847-sonli Farmoni Oliy ta'lim muassasalari hududiy miqyosdagi mavjud muammolarga innovatsion yechim topishi, hududda ilm-fan rivojlanishida lokomotiv vazifasini bajarishi muham ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar kerak. Buning uchun pedagogik ijodkorlikka alohida e'tibor qaratish muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda ta'limda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, bo'lajak pedagoglarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga doir kompetentligini rivojlantirish, pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini yaratish, maxsus ta'lim sharoitida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi hech kimga sir emas. Ijodkorlik deganda mavjud tajribani yangicha tashkil qilish va bilimlar, malakalar, mahsulotlarning yangi kombinatsiyalarini yaratish asosida mohiyatan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratish bilan bog'liq faoliyat jarayoni yoki yangilik yaratish qobiliyati tushuniladi. Ijodkorlikning turli darajalari mavjud: bir darajasida mavjud bilimlardan foydalaniladi va ularning qo'llanish sohalari kengaytiriladi; boshqa, yuqoriroq darajasida esa biron bir ob'ekt yoki bilim sohasiga nisbatan odatlanib qolingan nuqtai nazarni o'zgartirib yuboradigan mutlaqo yangicha yondashuv yaratiladi.

Muhokamav va natijalar

Ijodkorlik ilmiy- pedagogik adabiyotlarda insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratishi bilan bog'liq murakkab psixologik jarayon tarzida talqin etilgan. Pedagogik ijodkorlik o'qituvchi tomonidan muttasil o'zgarib turadigan ta'lim-tarbiya jarayonida,

talabalar bilan muloqotda optimal va nostandart pedagogik qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish demakdir. Pedagogik ijodkorlikning asosiy vazifasi esa talabalarga axborot berishning yangi maqbul tizimlarini ishlab chiqish va qo'llash, ularni pedagogik mahorat cho'qqilariga erishishda pedagogika ilmi va amaliyoti to'plagan bilimlarga daxldor qilish, ularda yangi bilimlarni mustaqil izlab topish malakasini rivojlantirishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish shaxsning ijodiy faoliyatida o'z aksini topgan ijodiy salohiyati, ijodiy tafakkuri, ijodiy faolligi, ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Ijodiy qobiliyat yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oya, farazni ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilish yo'llarini izlash hamda yechimini topish va pirovard natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari va boshqalar) sifatleri majmuini ifoda etsa, ijodiy faoliyat – bu sub'ekt faoliyatining o'z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko'chirish, muammoli, ma'lum ob'ektning yangi funksiyasini ko'ra bilish) jarayonidir. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining pedagogik ijodkorligi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida rivojlanadi. Ob'ektiv omillarga pedagoglar va talabalar jamoasidagi va umuman, mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlar, fan va texnika taraqqiyoti, talabalarni tayyorlash shart- sharoitlari va vositalarining takomillashuvi, o'qituvchilar pedagogik mahoratining ortishi mansub bo'lsa, sub'ektiv omillarga jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga o'qituvchining munosabati, uning axloqiy sifatleri, ma'naviy qadriyatlari, kasbiga bo'lgan mayli, pedagogik faoliyatda o'zini o'zi namoyon qilishga bo'lgan intilishi, uning shaxsiy fe'l-atvori kiradi. Akmeologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'zlarini ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub'ektlari tarzida namoyon qilishlarini ko'zda tutadi hamda ularning sub'ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi takomillashtirishi uchun sharoit yaratadi. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi turli-tuman qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shaxsning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi namoyon qilishini taqozo etadigan akmeologik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ularning aynan jadal rivojlanishi psixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish tizimining markaziy bo'g'ini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida bo'lajak

o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir.

Xulosa Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish tizimining markaziy bo'g'ini sifatida samarali ijodiyfaoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi.. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. Akmeologik qobiliyatlar insonning hayoti-faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi avtopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabr. PF-5847-sonli Farmoni
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 592.
3. Leontyev A.N. Psixologiya i pedagogika tvorchestva. – Moskva: Prosveshchenie, 2017.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Abdullayeva M. Pedagogik kreativlik va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. UNESCO. Teacher Professional Development and Creativity. – Paris, 2020.
7. Zimmaya I.A. Psixologiya i razvitiye lichnosti. – Moskva: Akademiya, 2019.
8. Vygotsky L.S. Pedagogicheskaya psikhologiya. – Moskva, 2016.